

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND  
THEIR SOLUTIONS  
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024**

**TA'LIM JARAYONIDA ADABIY TAHLIL MALAKASINING OSHIRILISHIDA  
NASRIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI(ISAJON SULTON IJODI MISOLIDA)**

***Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi***

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek  
tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada ta'lif jarayonida adabiy tahlil malakasining oshirilishida nasriy asarlarning tutgan o'rni va ahamiyati yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek maqolada Isajon Sulton qilamiga mansub asarlarning tahlil etilishi maktab o'quvchilar va oliv ta'lif talabalari o'ttasidagi farqli jihatlar ham qalamga olinadi. Tahlil malakasining amalga oshirishda unsurlar va adabiyot qoidalari tiplashtirish va o'quvchi-yoshlarining badiiy tahlilga bo'lgan munosabatini oshirishga qaratilgan tushunchalar qalamga olingan. Abdulla Qahhor va mumtoz adabiyotimiz vakillari tomonidan yaratilgan asarlarning tahliliy jihatlari taqqoslash asosida fikr yuritishga sabab bo'lgan.

**KALIT SO'ZLAR:** Individual yondashuv, integratsion tahlil etish, amaliy mulohazalar, monografiya, tahlil elementlari.

Adabiy asarlarni taqdim etish poetik ifoda vakillari, undagi muhit va davrning kishilar xarakteri orqali ham berilishi mumkin. Bir qaraganda asarlarning yaratilish shakli va davr nuqtayi nazaridan bir necha asrlar oldingi voqealar majmuiga o'xshab ketishi mumkin. Ammo Ulug'bek Hamdam va Shukur Xolmirzayev asarlari Isojon Sultonnikidan biroz farqli jihatlari mavjud.

«O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari» nomli monografiyasida muallif o'quvchilarda adabiy tahlil ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda kutilgan natijalarga erishish uchun uzviylik hamda uzlusizlik tamoyiliga tayanish lozimligini ilmiy jihatdan asoslab bergen.

“Olim badiiy tahlilning elementar namunalarini boshlang'ich sinflardan boshlash kerakligini alohida ta”kidlagan. Bu asarda o'quvchilaming adabiy tahlil bo'yichako'nikma va malakalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari sifatida yozuvchining ijodiy mahoratini o'rganish muammosi katta ahamiyat kasb etishi ta”kidlangan. Muallif qarashlarini maktab «Adabiyot» darsliklariga kiritilgan Atoyi, Alisher Navoiy va Abdulla Qahhor singari ijodkorlaming hayot yo'li hamda ijodiy mahorati tadqiqi asosida isbotlagan”[1]. O'tgan asr mobynida o'zbek adabiyotida kommunistik mafkuraning turli xil g'oyalari asosida shakllanishi ham buning yaqqol misolidir. Badiiy asarlarda obraz hikoyalarda va qissalarda turli xil yo'nalishda beriladi. Qaysidir hikoyalarda ruhiyat kayfiyati ongli ravishda ifodalayotgan bo'lsa, ba'zi hikoyalar esa faqat tasvir uslubi hikoya chizig'idaberiladi. Kishilarning turishi turmushi peyzaj uslubida berilsa asarlarda mutanosiblik yuzaga keladi. Bu esa asarning o'qilishi tarzi, rivojlanish, konsepsiysi bilan aloqadordir. Asarda keltirilgan so'zlar o'z davrining ma'no jihatlaridan ochib berishga va qahramonlar kayfiyatini tushuntirib berishga xizmat qiladi. “Pedagogik yo,,nalishdagi oliy o,,quv yurtlari adabiy ta”limi jarayonini integratsiyalashni quyidagi tizimda ko,,rish mumkin:

- o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi;
- oliv o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi;
- adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasi va maktab o'quvmetodik birlashmalari integratsiyasi;
- ilmiy-o'quv va amaliy markazlar integratsiyasi;
- talabalami ma”lum yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi;
- mutaxassislar va talabalaming ijodiy jamoasi integratsiyasi va hk”.[2]

Bu borada ularni qo'llash jarayonida xalq qadimgi urf-odatlariga tayangan holda, o'zbek milliy adabiy unsurlardan foydalanadi. Qozoqboy Yo'ldashev kabi olimlarimiz bu kabi turdag'i asarlarni tahlil qilish o'rganish barobarida ularning irsiyatning yutuqlarini ongli ravishda tahlil etib kelmoqdalar. Qaysidir inson buni shunchaki gapirgan paytida anglamasligimiz mumkin. Ammo yozuvchi bu jarayonni psixologik tasvir vositasi ila yortib bergen. Ikromjon va Tursunboy o'rtasidagimunosabatlariga birqadar nazar tashlasak. Chunki bu orqali Isojon

Sultonningtalqinidagi ota va farzand aloqasi qay darajada ekanligini tushunishimiz mumkin. Bu esa postmodernizmning qiralari bilan solishtirish imkonyatini vujudga keltiradi va o“z-o“zidan intertekstuallikka asos bo“ladi. Hikoyada o“g“ilning bor motiv va motivatsiyasi otaga nisbatan qaratilgan. Buni biz personaj nutqidan keltirilgan har bir jumlada ilg“ashimiz mumkin. Demakki, bu orqali ijodkor sovuq qish tarovatini yuksak bir qiyosiy darajga ko“targan. O“zbek adabiyotining yulduzi bo’lmish – Abdulhamid Cho’lpon ham peyzaj tasviri vositasida xarakterning ichki psixologik holatini yuksak mohorat ila “Kecha va kunduz” romanida qo“llagan edi. “Mustaqillikning ilk davrida, milliy tarbiyashunoslikni yangilashga qaratilgan, pedagogika ilmi va amaliyotida shu vaqtga qadar mavjud bo’lмаган rasmiy pedagogik hujjat - fanlar bo,,yicha ta’lim konsepsiyalari yaratildi. Shular qatorida «Adabiy ta“lim konsepsiysi» ham ishlab chiqilib, unda yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida adabiyot o,qitishning maqsad va vazifalari belgilab berildi. Maqsad va vazifalaming yangilanishi adabiy ta“limning mazrmmi hamda o’qitish usullarini ham o’zgartirishni taqozo qildi”.[3]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonidagi o’quvchilarning bilim darajasini oshirish adabiy badiiy asarlarning tahlil etilishi bilan bog’liqdir. Tahlil malakasining o’rgatilishi va yuzaga kelishida o’qituvchi shaxsiyatning nasriy asarlariga bo’lgan munosabati bevosita aloqadordir. Nasriy asarlarini tahlil qilish jarayonda zamonaviy va milliy adabiyotimiz asarlarini ham inobatga olish lozim. Bunga sabab milliy adabiyotimizning namoyondalari va bugungi zamonaviy adabiyotimiz vakillarining asarlarini tahlil qilish tizimlari badiiy tahlilning elementlari bilan bir necha bor farqli jihatlarni yuzaga keltiradi. Har bir davrning o’ziga xos uslubi va yo’nalishlari bor bo’lganidek, asarlarning tahlil qilish sirlari ham mana shunday tartibda amalga oshiriladi. O’quvchi-yoshlarda postmoderenizm va obrazlilik tushunchalarni o’rganish va o’rgatish ayni mana shunday masalalarda ta’lim konsepsiysi asosida yuzaga keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M. Mirqosimova. O’quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. - T.: «Fan», 2006.
2. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya:\\_Svobodnaya\\_ensiklopediya](https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya:_Svobodnaya_ensiklopediya).
3. Q. Yo’ldoshev. Uzluksiz adabiy ta“lim yo,,rig,,i (konsepsiysi).-T.: O „ZPFITI, 1995